



## PARRANDACHILIK XO‘JALIKLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

*Shermatov Abbos Jumayevich*

*GULDU, mustaqil tadqiqotchisi*

*+998943518088*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada parrandachilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, parrandachilik tarmog‘ining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, aholini sifatli va arzon oqsil manbalari bilan ta‘minlashdagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot davomida parrandachilik xo‘jaliklarida resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda rentabellik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiluvchi iqtisodiy mexanizmlar ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar.** parrandachilik, parrandachilik xo‘jaliklari, ishlab chiqarish samaradorligi, iqtisodiy mexanizmlar, rentabellik, mahsulot tannarxi, mehnat unumdorligi, innovatsion texnologiyalar, investitsiya, oziq-ovqat xavfsizligi, raqobatbardoshlik.

**Kirish.** Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, uning yuqori daromadli va raqobatbardosh tarmoqlarini rivojlantirish milliy iqtisodiyot oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ana shunday strategik yo‘nalishlardan biri parrandachilik tarmog‘i bo‘lib, u aholini oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, parhezboq go‘sht va tuxum mahsulotlari bilan ta‘minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Parrandachilik qisqa muddatda yuqori natija berishi, nisbatan kam resurs talab qilishi va ichki bozor talabini qondirish bilan birga eksport salohiyatini ham oshirishi bilan agrar iqtisodiyotning muhim bo‘g‘inlaridan biri sanaladi.



Shu bilan birga, parrandachilik xo'jaliklari faoliyatida ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, yem-xashak bazasining yetarli darajada mustahkam emasligi, ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi, energiya va moddiy resurslardan foydalanish samaradorligining pastligi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish darajasining yetarli emasligi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi omillar tarmoqning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Mazkur holat parrandachilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini chuqur o'rganish va ularni takomillashtirishni taqozo etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda parrandachilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganishda umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini tizimli yondashuv tashkil etib, unda parrandachilik xo'jaliklari faoliyati o'zaro bog'liq bo'lgan tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy va texnologik omillar birligi sifatida ko'rib chiqildi. Bu yondashuv tarmoq samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni alohida emas, balki yaxlit tizim doirasida tahlil qilish imkonini berdi.

**Asosiy qism.** Parrandachilik qishloq xo'jaligining eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, u aholining oqsilga bo'lgan ehtiyojini qondirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va agrar tarmoq daromadlilikini oshirishda muhim o'rin tutadi. Xalqaro amaliyotda parranda go'shti arzonligi va nisbatan yuqori oqsil-sifat ko'rsatkichlari sababli eng tez o'sayotgan go'sht segmentlaridan biri sifatida baholanmoqda; OECD–FAO prognoziga ko'ra, 2034-yilga borib parranda go'shti barcha go'sht manbalaridan olinadigan oqsilning 45 foizini ta'minlaydi. Ishlab chiqarish samaradorligi iqtisodiy kategoriya sifatida xo'jalikning ma'lum resurslar evaziga qancha natija olayotganini ifodalaydi. Parrandachilikda u, odatda, **mahsulot hajmi, tannarx, bir bosh parranda hisobiga**



**mahsuldorlik, yem sarfi, mehnat unumdorligi, foyda va rentabellik** kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi. FAO materiallarida parranda ishlab chiqarishida mahsuldorlikni baholash "ma'lum vaqt oralig'ida olingan mahsulot qiymatini shu davrdagi jami sarflar qiymati bilan taqqoslash" tamoyiliga asoslanishi ko'rsatilgan. Shu nuqtai nazardan, parrandachilik xo'jaliklarida samaradorlikni oshirishning iqtisodiy mexanizmlari quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Resurslardan tejamkor foydalanish;
2. Yem bazasini optimallashtirish;
3. Ishlab chiqarishning texnologik darajasini oshirish;
4. Seleksiya-genetika va veterinariya xizmatlarini takomillashtirish;
5. Kooperatsiya va klasterlashuvni rivojlantirish;
6. Qayta ishlash, logistika va bozor infratuzilmasini mustahkamlash;
7. Davlat tomonidan rag'batlantirish vositalarini kuchaytirish.

O'zbekistonda so'nggi yillarda parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sib bormoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda 2024-yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda 8,8 milliard dona tuxum ishlab chiqarilgan. Bu ko'rsatkich 2023-yildagi 8 487,4 million donaga nisbatan qariyb 3,7 foizga yuqori. Oldingi yillarda ham ijobiy o'sish kuzatilgan: 2021-yilda 7 788,4 million dona, 2022-yilda 8 129,2 million dona, 2023-yilda esa 8 487,4 million dona tuxum ishlab chiqarilgan. Demak, 2021–2024-yillar oralig'ida tuxum ishlab chiqarish hajmi izchil oshgan va tarmoqda o'sish trayektoriyasi shakllangan. Shuningdek, 2024-yilda O'zbekistonda barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 310,9 ming tonna parranda go'shti (tirik vaznda) yetishtirilgan. Ushbu hajmning 196,1 ming tonnasi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelib, jami ishlab chiqarishning taxminan 63,1 foizini tashkil etgan. Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasi 63,9 ming tonna yoki 20,6 foiz, fermer xo'jaliklari hissasi esa 50,9 ming tonna yoki 16,4 foizni tashkil qilgan. Ushbu



tarkibiy tuzilma tarmoqda yirik va institutsionallashtirilgan subyektlar ulushi yetakchi ekanini, ya'ni sanoatlashuv darajasi ortib borayotganini ko'rsatadi. 2024-yilning yanvar–mart oylarida mamlakatda 1,4 milliard dona tuxum yetishtirilgani va bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 106,9 foizni tashkil etgani ham tarmoqning qisqa muddatli o'sish sur'ati ijobiy bo'lganini ko'rsatadi. Shu davrda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan 409,1 million dona tuxum ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati 14,6 foiz bo'lgan. Bu esa korporativ va tashkilot shaklidagi ishlab chiqaruvchilar samaradorligi nisbatan yuqori ekanini anglatadi. Mazkur statistik ko'rsatkichlar parrandachilik tarmog'i O'zbekistonda o'sib borayotgan bo'lsa-da, mavjud salohiyat hali to'liq ishga solinmaganini ko'rsatadi. Prezident huzuridagi taqdimotda 2025-yil uchun 1 million tonna parranda go'shti, 10,5 milliard dona tuxum ishlab chiqarish hamda eksportni ikki karra oshirib 180 million dollarga yetkazish maqsadi belgilangan. Bu maqsadlar tarmoq oldida katta hajm va samaradorlik talablari turganini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Parrandachilik xo'jaliklarida samaradorlikni oshirish uchun birinchi navbatda vertikal integratsiya va kooperatsiyani rivojlantirish zarur. FAO ma'lumotlariga ko'ra, zamonaviy parrandachilik tarmog'ida vertikal integratsiya, ya'ni yem ishlab chiqarish, inkubatsiya, boqish, so'yish, qayta ishlash va realizatsiya bosqichlarining yagona zanjirga birlashuvi xarajatlarni nazorat qilish, sifatni standartlashtirish va bozor xatarlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Contract farming modeli esa o'rta hajmdagi fermerlarga nisbatan kamroq boshlang'ich kapital bilan ilg'or texnologiyaga kirish imkonini beradi. O'zbekiston tajribasida ham kooperatsiya modelining ijobiy jihatlari qayd etilgan. Prezident materiallarida Andijon, Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlarida parrandachilik kooperatsiyasi bo'yicha yaxshi tajriba mavjudligi, ayrim korxonalar xonadonlarga emlangan jo'ja, qafas va yem berib, keyinchalik tuxumni qayta sotib olish tizimini yo'lga qo'ygani ko'rsatilgan. Mazkur model aholi bandligini oshirish, xonadon



daromadlarini ko‘paytirish va korxonalariga xomashyo oqimini kafolatlash nuqtai nazaridan yuqori iqtisodiy samara beradi.

Ikkinchi yo‘nalish — davlatning iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirishdir. 2024-yil 27-iyundagi PQ-238-son qarorga ko‘ra, 2030-yil 1-yanvargacha parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan ozod etilgan. Shuningdek, 2024-yil 1-iyuldan boshlab parranda go‘шти eksportidagi cheklovlar bekor qilingan. Bunday chora-tadbirlar ishlab chiqaruvchilarning xarajatlarini kamaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va eksportga yo‘naltirilgan faoliyatni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchi yo‘nalish — bozor infratuzilmasi va qiymat zanjiri samaradorligini oshirish. Jahon banki O‘zbekiston chorvachilik subsektori strategik ustuvorliklari qatorida bozor infratuzilmasi, qiymat qo‘shish, moliyaga kirish, texnologiya, naslchilik, yem va oziqlantirish hamda ishlab chiqarishni raqamlashtirishni alohida ko‘rsatgan. Bu yondashuv parrandachilikka ham to‘liq tatbiq etiladi, chunki mahsulotni faqat ishlab chiqarish emas, balki saqlash, sovutish, tashish, qayta ishlash va sotish bosqichlaridagi yo‘qotishlarni kamaytirish ham rentabellikni sezilarli oshiradi. Takliflarni keltirib o‘tish kerak,

1. Yem-xashak bazasini mustahkamlash zarur. Parrandachilik xo‘jaliklari uchun ozuqa ishlab chiqarishni kengaytirish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish va yem tannarxini pasaytirish bo‘yicha maxsus iqtisodiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
2. Resurs tejankor va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish lozim. Zamonaviy inkubatsiya uskunalari, avtomatlashtirilgan oziqlantirish va sug‘orish tizimlari, energiya tejankor texnologiyalarni qo‘llash ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, mahsulot hajmi va sifatini oshiradi.



3. Imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish kerak. Parrandachilik xo'jaliklari uchun uzoq muddatli imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va lizing asosidagi moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarini takomillashtirish tarmoqning investitsion jozibadorligini oshiradi.
4. Naslchilik va seleksiya ishlarini kuchaytirish muhim. Mahsuldor zotlarni ko'paytirish, inkubatsiya stansiyalarini rivojlantirish va ilmiy asoslangan seleksiya ishlari orqali parranda mahsuldorligini oshirish mumkin.
5. Parrandachilik xo'jaliklarida boshqaruv samaradorligini oshirish zarur. Xarajatlar hisobi, rejalashtirish, ichki nazorat, marketing va logistika tizimlarini takomillashtirish orqali xo'jalik faoliyatining iqtisodiy natijadorligini yaxshilash mumkin.
6. Tarmoqda kooperatsiya va klaster yondashuvini rivojlantirish lozim. Ozuqa yetishtirish, parrandani boqish, mahsulotni qayta ishlash, saqlash va sotish jarayonlarini yagona zanjirga birlashtirish qo'shimcha qiymat yaratish va bozordagi raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.
7. Mahsulotni qayta ishlash va diversifikatsiya qilishni kengaytirish kerak. Tuxum va parranda go'shtini qayta ishlash, qadoqlash, brendlash va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish xo'jaliklarning daromadlilikini oshiradi.
8. Davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar, veterinariya xizmatlari sifati, epizootik xavfsizlik va bozor infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha kompleks yondashuv zarur.
9. Kadrlar salohiyatini oshirish lozim. Parrandachilik xo'jaliklari mutaxassislari uchun zamonaviy menejment, veterinariya, zoonjiniring va iqtisodiy tahlil bo'yicha malaka oshirish dasturlarini kengaytirish kerak.
10. Raqamli boshqaruv va monitoring tizimlarini joriy etish tavsiya etiladi. Ishlab chiqarish jarayonlarini elektron nazorat qilish, xarajatlar va daromadlarni



raqamli tahlil qilish, bozordagi talab va taklifni monitoring qilish tarmoq samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Parrandachilikni yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-4015-son qaror. 2018-yil 13-noyabr. Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-5146-son qaror. 2021-yil 14-iyun. Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Chorvachilik va parrandachilikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-34-son qaror. 2025-yil 30-yanvar. Lex.uz.
4. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Gateway to poultry production and products: Production. Rome: FAO.
5. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Economics: Gateway to poultry production and products. Rome: FAO